



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



NOGRONLIGI BO'LGAN BOLALARGA XOS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Abdumominova Sevinch Alisher qizi

Termiz iqtisodiyot va servis uniuversiteti

Pedagogika va psixologiya yo'nalishi

2- kurs 1/23 guruh talabasi

Ilmiy rahbar: D.O.Aminova

Annotatsiya: *Ushbu maqolada nogronligi bo'lgan bolalarga xos xususiyatlar nazariy jihatdan tahlil qilingan. Bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, oilaviy muhiti va hissiy ehtiyojlari qatorida psixik muammolarni nazariy tahlil qilish va yanada samarali yechimlarni topib bartaraf etish borasida fikrlar bildirilgan.*

Kalit so'zlar: *Nogronlik, bolalar psixologiyasi, hissiy ehtiyojlar ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, aqliy zaiflik .*

Kirish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 31 dekabrda 287 sonli qarorining 525 moddasida "Nogiron bolalarni jismoniy nuqsoni bo'lgan hamda asab va ruhiyati buzilgan bolalar, surunkali og'ir kasalliklardan azob chekuvchi bolalar, shuningdek yetimlar, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarda qarovsiz qolgan, notinch oilalar bolalari muammolarni ishlab chiqish va ularni to'laqonli ijtimoiy va tibbiy moslashtirishni ta'minlashga ko'maklashish to'g'risida keltilgan". Nogronligi bo'lgan bolalar o'zlarining jismoniy, aqliy va hissiy ehtiyojlari bo'yicha maxsus yordamga muhtoj bo'lishadi. Nogironligi bo'lgan bolalar jamiyatning himoyaga muhtoj qatlamlaridan biri hisoblanadi. Ularning psixologik rivojlanishi va ta'lim olish bolalar psixologiyasini chuqurroq tushunish ularga ularga yordam berish va amaliy tavsiyalarni taqdim etadi.

Asosiy qism

Nogiron bolalarning psixologik rivojlanishi. Nogiron bolalar rivojlanishi jarayonida turli xil qiyinchliklarga duch kelishadi. Bu qiyinchliklar ularning jismoniy, aqliy hissiy ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Psixologik rivojlanishning asosiy tamoyillari barcha bolalar uchun bir xil bo'lsada, nogron bolalar uchun bu jarayonlarda qo'shimcha yondashuvlar va qo'llab-quvvatlash talab etiladi.

Hissiy rivojlanish. Nogron bolalarning hissiy rivojlanishi ham maxsus e'tiborni talab qiladi. Ular ko'pincha o'z hissiy tuyg'ulari ifoda etishda va boshqarishda qiyinchliklarga duch kelishadi. Hissiy rivojlanish uchun psixologik qo'llab-quvvatlash va terapiya muhimdir. Ushbu qo'llab-quvvatlash bolalarning o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini hurmat qilish qobiliyatini rivojlantiradi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Qoʻllab quvvatlash xizmatlari. Ushbu xizmatlar maxsus taʼlim oʻquvchilari, terapevtlar, psixologlar va boshqa mutaxassislar tomonidan taqdim etladi. Qoʻllab quvvatlash xizmatlari bolalarning taʼlim jarayonida muvaffaqiyatli boʻlishlarni taʼminlaydi.

Nogiron bolalar oilaviy muxit. Oila nogiron bolalar uchun eng muhim qoʻllab - quvvatlash manbaidir. Oilaning sevgi, tushunish va sabr toʻqat bilan yondashuvi bolalarning rivojlanishida katta rol oʻynaydi. Oilaning qoʻllab quvvatlashi bolalarning rivojlanishida katta rol oʻynaydi. Oilaning qoʻllab quvvatlashi bolalarning hissiy barqarorligini taʼminlaydi. Oilaviy muxit nogiron bolalar uchun xavfsiz. Uy sharoitidagi maxsus jihozlar, moslashtirilgan oʻquv muhitlari va oilaviy mashgʻulotlar bolalarning rivojlanishini, oʻzlarini erkin va xavfsiz his qilishga yordam beradi. Ota onalar uchun dasturlar va maslahatlar nogiron bolalarning rivojlanishga katta hissa qoʻshadi. Ota onalar maxsus treninglar, maslahat xizmatlari mavjud. Ushbu dasturlar ota-onalarga bolalarning ehtiyojlarni yaxshiroq tushunishi va ularga samarali yordam berish imkonini beradi. Aqli zaiflik bolalarning shaxsiy xususiyatlari ruhiy jarayonlarning oʻziga xosligi, bilim egallash imkoniyatlari haqidagi olifgofrenopedagoglar uchun zarur boʻlgan maʼlumotlarni yigʻish zarur bularga misol qilib kuzatish, tajriba, suxbat, anketa, test oʻquvchilarni faolyat natijalarni tahlil va boshqa usullar kiradi. Aqliy zaif bolalar psixologiyasi yosh davr psixologiyasi yutuqlariga ham suyanadi. Qaysi yoshda, qaysi ruhiy holatlar, qay darajada oʻsishini, rivojlanishini bilish katta ahamyatga ega. Pegogik psixologiya ham aqli zaif bolalar psixologiyasi uchun yetarli maʼlumot beradi.

Xulosa.Ushbu maqola nogron bolalarning rivojlanish xususiyatlari, ularga yordam berishning samarali oilaviy va ijtimoiy muhitdagi oʻrni haqida keng qamrovli tahlil taqdim etadi. Psixologik yondashuvlar qoʻllab quvvatlash bolalarga taʼsiri batafsil koʻrib chiqiladi. Maqola nogiron bolalarning optimal rivojlanishi va jamiyatda toʻlaqonli ishtirok etishlari uchun zarur boʻlgan omillarni yoritadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.M.X .Asronboyeva .D.D,Boymirzayev D.D,Oribboyeva. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostika. Toshkent 2023 yil
2. Moʻminova L.R. Maxsus psixologiya. Toshkent 2013 yil
- 3.Шагазатова, Б. Х., & Кудратова, Н. А. (2024). ДИНАМИКА ДАННЫХ АНТРОПОМЕТРИИ У БОЛЬНЫХ С ОЖИРЕНИЕМ ПОСЛЕ БАРИАТРИЧЕСКОЙ ХИРУРГИИ.
4. Maxsudova M. "Muloqot psixologiyasi" Toshkent Turon - Iqbol 2006 yil
5. Шагазатова, Б. Х., Мирхайдарова, Ф. С., Артикова, Д. М., Ахмедова, Ф. Ш., & Кудратова, Н. А. (2019). Особенности течения сахарного диабета у вичинфицированных больных.